

O'ZBEKISTONDA GASTRONOMIK TURIZMNING AHAMİYATI VA TUTGAN O'RNI

Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi

“Ta’lim sifati nazorati bo’limi” bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda gastronomik turizmning rivojlanish holati, uning mamlakat turizm sanoatidagi o'rni va iqtisodiyotga ta'siri yoritilgan. Tadqiqotda xalqimizning milliy taomlarining betakrorligi, tarixiy va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqligi, shuningdek, xorijiy sayyohlar e'tiborini tortayotgan asosiy gastronomik yo'nalishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur turizm yo'nalishini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, marketing strategiyalari hamda xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil ham berilgan. Maqola yakunida O'zbekistonda gastronomik turizm salohiyatini yanada oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние развития гастрономического туризма в нашей стране, его место в туристической индустрии и влияние на экономику. В исследовании анализируется уникальность национальных блюд нашего народа, их тесная связь с историческими и культурными ценностями, а также основные гастрономические направления, привлекающие внимание иностранных туристов. Кроме того, приводится сравнительный анализ государственной политики, направленной на развитие данного направления туризма, маркетинговых стратегий и международного опыта. В заключение статьи представлены предложения и рекомендации по дальнейшему повышению потенциала гастрономического туризма в Узбекистане.

Abstract: This article examines the current state of gastronomic tourism development in our country, its place in the national tourism industry, and its impact on the economy. The study analyzes the uniqueness of our national dishes, their close connection with historical and cultural values, as well as the main gastronomic destinations that attract the attention of foreign tourists. In addition, a comparative analysis is provided of state policies aimed at developing this tourism sector, marketing strategies, and international experiences. The article concludes with proposals and recommendations for further enhancing the potential of gastronomic tourism in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, turizm, gastronomik turizm, milliy taomlar, oshxona an'analari, iqtisodiy ta'sir, tarixiy meros, milliy mahsulotlar, Jizzax viloyati, Jizzax somsasi, Sangzor palovi, Zomin asali, turizm festivallari, ekoturizm, agroturizm, Shavkat Mirziyoyev, davlat siyosati, turizm strategiyasi, Buyuk Ipak yo'li.

Ключевые слова: Узбекистан, туризм, гастрономический туризм, национальные блюда, кулинарные традиции, экономическое влияние, историческое наследие, национальные продукты, Джизакская область, джизакский самса, палау Санзор, мёд Зомин, туристические фестивали, экотуризм, агротуризм, Шавкат Мирзиёев, государственная политика, стратегия туризма, Великий шёлковый путь.

Keywords: Uzbekistan, tourism, gastronomic tourism, national dishes, culinary traditions, economic impact, historical heritage, national products, Jizzakh region, Jizzakh samsa, Sangzor pilaf, Zomin honey, tourism festivals, ecotourism, agritourism, Shavkat Mirziyoyev, state policy, tourism strategy, Great Silk Road.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini modernizatsiya qilish va jahon turizm bozorida mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada gastronomik turizm, ya‘ni milliy taomlar, an‘anaviy ovqatlanish madaniyati va mahalliy mahsulotlarni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shavkat Mirziyoyev rahbarligida gastronomik turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4416-son qaror -“O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [1], 2022-yil 20-dekabrda PF-269-son Farmon-“2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi”gi [2], 2023-yil 27-yanvardagi PQ-13-son qaror — “Milliy taomlar festivalini o‘tkazish va gastronomik turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [3] qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston qadimdan Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan bo‘lib, bu hudud turli madaniyatlar, an‘analar va oshpazlik usullarining uyg‘unlashuviga sabab bo‘lgan. Samarqand noni, Farg‘ona palovi, Buxoro shurvasi, Xorazm tandir go‘шти kabi taomlar o‘ziga xos tarixiy ildizlarga ega.[4]

Gastronomik turizm nafaqat turizm daromadlarini oshiradi, balki qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, transport va xizmat ko‘rsatish sohaslarini ham rivojlantiradi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma‘lumotlariga ko‘ra, sayyohlar xarajatlarining 30–40 foizi ovqatlanish xizmatlariga to‘g‘ri keladi.[5]

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning milliy oshxonasini chet elda targ‘ib qilish maqsadida “O‘zbek taomlari haftaligi”, “Milliy taomlar festivali” kabi tadbirlar Turkiya, Fransiya, BAA va boshqa mamlakatlarda o‘tkazildi.

O‘zbekiston gastronomik turizmida mintaqaviy xususiyatlar har bir viloyat o‘zining milliy taomlari va mahsulotlari bilan ajralib turadi. Masalan, Samarqand tandir noni, norin, Buxoro oshi sofi, shivit oshlari bilan, Xorazm tuxum barak, go‘شتli somsa, Farg‘ona vodiysi qo‘qon palovi, chuchvara, Qashqadaryo va Surxondaryo turli xil go‘شتli taomlar va ziravorlarini aytib o‘tish lozim.[6]

Gastronomik turizmning rivojlanishi turizm infratuzilmasini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Mahalliy restoranlar, oshpazlik maktablari, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar va qishloq xo‘jaligi sohasidagi ishlab chiqaruvchilar bundan bevosita foyda ko‘radi. Shuningdek, milliy oshxona brend sifatida targ‘ib etilishi mamlakat imijini xalqaro miqyosda mustahkamlaydi.

O‘zbekiston oshxonasining ildizlari ming yillar davomida shakllangan va u turli xalqlar madaniyatining o‘zaro ta‘siri natijasida boyigan. Gastronomik turizm orqali bu an‘analarni nafaqat xorijlik mehmonlarga, balki yosh avlodga ham

yetkazish mumkin. Oshpazlik mahorati ko'rgazmalari, milliy taom festivallari, pazandalik bo'yicha mahorat darslari bu borada muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda gastronomik turizm milliy merosni asrash, mahalliy iqtisodiyotga qo'shimcha daromad keltirish va xalqaro imidjni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, Jizzax viloyati kabi o'ziga xos oshxona an'analari va tabiiy mahsulotlarga ega hududlar bu yo'nalishda katta salohiyatga ega. Davlat siyosati, xususan Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari asosida gastronomik turizmni rivojlantirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4416-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrdagi PF-269-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-yanvardagi PQ-13-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari — www.uzbektourism.uz
5. UNWTO — World Tourism Organization. Gastronomy Tourism Reports, 2023.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari. Toshkent, 2022.